



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 68 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:<br>tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....                           | 14 |
| <b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>                                                                           |    |
| O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....                                                                                 | 20 |
| <b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>                                                                                                    |    |
| Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:<br>xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....                      | 25 |
| <b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>                                                                                                       |    |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....          | 30 |
| <b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>                                                                                                        |    |
| Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....                                                | 33 |
| <b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>                                                                                                        |    |
| Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....                                                      | 39 |
| <b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>                                                                                                         |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....                                                                       | 44 |
| <b>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</b>                                                                                                         |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni<br>shakllantirishning o'ziga xos jihatlari..... | 48 |
| <b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>                                                                                                        |    |
| Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners<br>in English Language Classes Through Digital Technologies .....    | 52 |
| <b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>                                                                                                        |    |
| Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                               | 55 |
| <b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>                                                                                                            |    |
| "Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....                                                             | 59 |
| <b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>                                                                                                      |    |
| O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....                                                                                       | 65 |
| <b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>                                                                                                          |    |



## O'SMIRLARDAGI NEVROZ HOLATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Sharq allomalarining nevroz holati bo'yicha fikrlari keltirilgan. Maqolada qo'llanilgan psixologik metodikalar o'smirlarda nevroz holatning hozirgi kundagi dinamikasini ko'rsatishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlilik davri, nevroz, isteriya, nevrotik buzilishlar, psixogen omil, xavotirlik.

**Abstract:** This article highlights the psychological characteristics of neurosis in adolescents. The article also presents the views of Eastern scholars on neurosis. The psychological techniques used in the article are aimed at showing the current dynamics of neurosis in adolescents.

**Key words:** adolescence, neurosis, hysteria, neurotic disorders, psychogenic factor, anxiety.

**Аннотация:** В статье освещаются психологические особенности невротизма у подростков. В статье также представлены взгляды восточных ученых на невротизм. Психологические приемы, используемые в статье, направлены на то, чтобы показать современную динамику невротизма у подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, невроз, истерия, невротические расстройства, психогенный фактор, тревожность.

### KIRISH

Nevrozlar (nevrotik kasalliklar) ehtimol inson mavjudligi bilan bog'liq tarixga ega. Nevroz deb hisoblanishi mumkin bo'lgan bugungi kungacha saqlanib qolgan buzilishlarning birinchi ta'riflari isterik kasalliklarga tegishli hisoblanadi.

O'smirlilik davri inson hayotining murakkab va serqirra bosqichi bo'lib, bu davrda psixologik va fiziologik o'zgarishlar intensiv ravishda sodir bo'ladi. Aynan shu davrda nevroz holatlari rivojlanishi ehtimoli yuqori bo'lib, bu o'smirlarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nevroz holatlari o'z-o'zini anglashdagi ziddiyatlar, stress omillari va oilaviy-ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Isteriyaning sabablari haqidagi noto'g'ri qarashlar oqibatida isteriya psixopatiyasi, isteriya nevrozi va boshqa isterik kasalliklarga ajratmasdan turib ta'riflash O'rta asrlarda ham saqlanib qoldi. Faqat XVIII asrda, birinchi navbatda tibbiyot bilan bog'liq bo'lgan turli fanlarning faol rivojlanishi davrida "nevroz" tushunchasi paydo bo'lib, uning zamonaviy ma'nosiga yaqinlashdi. Shotlandiya shifokori V.Kollen 1776-yilda bu tushunchani fanga kiritdi va nevrozga shunday ta'rif berdi: "Nevrotik buzilishlar... sezuvchanlik va harakat qobiliyatlari-ning buzilishi fonida organlardan birining mahalliy shikastlanishi bilan bog'liq bo'lmagan, lekin sabab bo'lgan... umumiy azob, ular ayniqsa harakat va fikrga bog'liqdir".<sup>[1]</sup> Biroq, nevrozning differensiyalanmagan tushunchasi XIX asrning o'rtalariga qadar mavjud bo'lib, bunda nevrotik kasalliklar ko'rsatkichi turli xil asab va ruhiy kasalliklarni o'z ichiga olgan.



Bu borada O'rta Asr sharq allomalari ilmiy izlanishlarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. O'tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo'nalish sifatida o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning asarlari, qo'lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilan taqozo qilganligini ba'zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta'kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma'naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o'z o'rnini va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Abu Nasr Farobiy "Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi", deb hisoblaydi [2]. Bunga Farobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino dunyoga mashhur asari "Tib qonunlari"da isteriya kasalligining klinikasini, kechishini, etiopatogenezini juda chuqur izohlab bergan. U isteriya –"bo'g'ilishga" alohida nevrologik birlik sifatida qaragan. Olim hozirgi zamon isterik nevrozini eslatuvchi turli-tuman kasallik holatlarini yozgan bo'lib, uning fikrlariga ko'ra uning asosida Buqrot aytganidek, "bachadon harakati" yotadi. U isteriya doirasidagi turli buzilishlar, "siqilish", titroq nomi bilan yozilgan mushak giperkinezi, isterik tutqanoqlar, xushidan ketish, letargiya, og'riq sezishning buzilishlari, somatovegetativ o'zgarishlar, yolg'on homiladorlik va boshqalar haqida yozgan. Isteriya kelib chiqishida Abu Ali Ibn Sino "bevalarning ruhiy iztirobi", "xayz tutilishi", "xohishni so'ndirish" va bu jarayonlarda nafaqat miyaning – psixogen, balki ruhiy seksual omillarning ham ahamiyati borligini ta'kidlaydi. U shuningdek, isterik tutqanoqni "bachadon bo'g'ilishi" nomi bilan quyidagicha yozadi: bu xastalik bachadondan boshlanib, yurak va miyani ishtirok etishga majbur qiladi va yiqilish yoki xushdan ketishni esalatadi. Ko'pincha bu xuruj sifatida boshlanib, kuz oylarida ko'proq namoyon bo'ladi. Shunday ekan, u isteriyani psixogen kasallik ekanligini ta'kidlaydi va qo'rquvdan, achchiq-alamdan, dahshatdan, kuchli ruhiy aziyatlardan, uyqusizlikdan, qayg'urishdan, musibatdan, ba'zan g'azab va boshqalardan kelib chiqishi mumkin,– deydi. Isterik reaksiyalar tarkibida yotgan somatovegetativ faoliyatning buzilishi Ibn Sino diqqatini o'ziga tortadi. Va natijada, u juda ko'p klinik kuzatishlarda boshdan kechirgan ruhiy jarayonlar (g'am, g'azab, achinish va boshqa ruhiy kechinmalar) oshqazon-ichak yo'llarida ich surishni, qabziyatni, qusishni, yurak sohasida og'riqni, yuragi urib ketishni, boshi aylanishini, og'rishini, terining oqarishi yoki qizarishini chaqirishi mumkin deb yozadi [3].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida kuzatish va suhbat metodlaridan faol foydalanildi. Kuzatish metodi o'smirlarning nevroz holatini tashqi tomondan kuzatish, o'quv jarayoni hamda tengdoshlar bilan munosabatlar jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni qay tarzda hal etishlari jarayonini o'rganish imkonini beradi. Suhbat usuli orqali o'smirlarning bir qator muammolari tinglandi va ularni hal qilishda o'smirlar qanday usullardan foydalanishlari, oilaviy munosabatlari haqida ma'lumotga ham ega bo'lindi.

O'quvchilardagi nevroz holati rivojlanishi, unga ta'sir qiluvchi turli omillar, psixodiagnostik metodikalarni bajarish jarayonida o'quvchilarning munosabatlarini tahlil qilish maqsadida dastlab kuzatish metodi qo'llanildi. Kuzatish metodi, asosan, ikki xil bo'lib, obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) turlarga bo'linadi. O'quvchilarni kuzatish metodi orqali tadqiq etish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- 1) Kuzatishdan maqsad va vazifalar belgilandi;
- 2) Kuzatilayotgan obyekt tanlandi;
- 3) Tadqiqot o'tkazish vaqti belgilandi;
- 4) Kuzatish qancha vaqt davomida amalga oshirilishi belgilandi;
- 5) Kuzatishning shakli tanlandi;
- 6) Kuzatish natijalarini qayd etish uchun kuzatish varaqasi tayyorlandi.

Kuzatish metodini o'tkazishimizdan asosiy maqsad o'quvchilardagi nevroz holatining namoyon bo'lishi, dars jarayonidagi turli muammolarga o'zining xulq-atvori orqali qanday munosabat bildira olishiga ta'sir qiluvchi

turli omillarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Olinadigan natijalar qayd etib borildi. Asosan, o'quvchilar dars jarayonlarida kuzatildi. Ularning ustozlari va tengdoshlari bilan munosabati, turli xil muammoli vaziyatlarda o'zlarini tutishlari, qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilib borildi. Ayniqsa, guruhij ijodiy faoliyat, aqliy hujum, bahs-munozara usullari qo'llanilgan jarayonda o'quvchilarning xatti-harakatlari, fikrlash jarayonlari kuzatib tahlil qilib borildi.

Kuzatish o'zida bevosita idrok etish va tashxis maqsadi hamda vazifalariga muvofiq bola axloqining barcha elementlarini bevosita qayd qilish yo'li bilan ma'lumot to'plash usulini o'zida aks ettiradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq, biz respondent sifatida Toshkent shahridagi 294-sonli o'rta maktabning 7-sinf hamda 8-sinf o'quvchilarini tanladik.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: Birinchi metodika sifatida L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress "Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish metodikasi" qo'llanildi. Ikkinchi metodika sifatida esa K.K.Yaxin hamda D.M.Mendeleevich tomonidan tuzilgan "Nevrotik holatlarni aniqlash va baholash uchun klinik anketa" metodikasidan foydalanildi.

K.K.Yaxin hamda D.M.Mendeleevich tomonidan tuzilgan "Nevrotik holatlarni aniqlash va baholash uchun klinik anketa" metodikasi ishtrokchiga 68 ta savolni taklif qiladi, ularga javob berish uchun subyekt o'zining hozirgi holatini besh balli tizim yordamida baholashi kerak. Agar ishtrokchida bu holat umuman sodir bo'lmagan bo'lsa "5" ball, agar kamdan-kam bo'lsa "4" ball, agar ba'zan bo'lsa "3" ball, agar tez-tez bo'lsa "2" ball hamda doimiy yoki har doim sodir bo'lsa "1" ball bilan belgilanadi. Ushbu metodikaning diagnostik shkalalariga quyidagilar kiradi:

1. Xavotirlik shkalasi.
2. Nevrotik depressiya shkalasi.
3. Asteniya shkalasi.
4. Isteriya shkalasi.
5. Obsesiv-fobik buzulish shkalasi.
6. Vegetativ buzilishlar shkalasi.

Natijalarni qayta ishlash jarayonida subyektlar tomonidan berilgan ballar tegishli diagnostika koeffitsientlariga aylantiriladi. Natijalarni talqin qilishda oltita shkala bo'yicha diagnostika koeffitsientlari umumlashtirilib, grafik tuziladi. Ya'ni, agar ko'rsatkich +1,28 dan yuqori bo'lsa, bu holat salomatlik darajasini ko'rsatadi, agar ko'rsatkich -1,28 dan kam bo'lsa bu holat aniqlangan buzilishlarning og'riqli tabiatini namoyon qiladi <sup>[4]</sup>. Qolgan o'rtadagi ko'rsatkichlar esa nevroz holatining o'rta darjasini ifodalaydi.

Ikkinchi metodika sifatida esa L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress "Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish metodikasi" qo'llanildi. Bu metodika jami 40 ta savoldan iborat. Har bir savolga diqqat bilan javob berish talab qilinadi. Savollarga faqatgina "ha" yoki "yo'q" javobini berish orqali metodika bajariladi. Har bir savol "1" ball bilan baholanadi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ijobiy hamda salbiy javoblar sonini hisoblash kerak. Agar olingan salbiy natija qanchalik katta bo'lsa, nevrotizm darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Nevrotizm darajalarni tahrirlashda nevrotizmning yuqori darajasi aniq hissiy qo'zg'aluvchanlikni ko'rsatadi, natijada salbiy tajribalar (xavotirlik, zo'riqish, bezovtalik, asabiylashish); istaklarning noroziligi bilan bog'liq tajribalarni shakllantiradigan tashabbusning yetishmasligi haqida; somatik sezgilar va shaxsiy kamchiliklarga ipoxondrial fiksatsiyaga olib keladigan egosentrik shaxsiy yo'nalish, muloqotdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy uyatchanlik va qaramlik yuqoriligi ko'rinadi.

Nevrotizmning past darajasi quyidagilarni ko'rsatadi: hissiy barqarorlik; tajribalarning ijobiy foni haqida (xotirjamlik, optimizm), tashabbus haqida, o'z-o'zini hurmat qilish haqida, mustaqillik, ijtimoiy jasorat, muloqot qulayligi haqida bizga ma'lumot beradi.

Agar hisoblangan natijalar 20 va undan yuqori bo'lsa, yuqori nevroz, agar 10 dan 19 gacha bo'lsa, o'rta darajadagi nevroz, agar 1 dan 9 gacha bo'lsa, quyi darajadagi nevroz deb qaraladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning empirik qismini Toshkent shahridagi 294-umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida o'tkazishga muvaffaq bo'ldik.

Tanlangan metodikalarni an'anaviy uslubda o'tkazdik, ya'ni metodikalar qog'oz shaklida tarqatildi va respondentlar tomonidan javoblar berilgandan keyin yig'ib olindi. Metodikaning natijasi ishonchli chiqishi uchun uni o'tkazish jarayonida barcha javoblarning xolisona belgilanishiga alohida e'tibor qaratildi.




Bizning tadqiqot ishimizda ishtirok etgan respondentlarning 59 nafari, ya'ni 57% qismi qiz bolalar, 44 nafari, ya'ni 43% qismi o'g'il bolalar bo'lib, qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etdi.

Ilmiy tadqiqot ishini ochib berish uchun uchta metodikadan foydalanildi. Bundan tashqari, tadqiqot ishimizda biz tomonimizdan tayyorlangan so'rovnoma ham foydalandik. Birinchi metodika sifatida K.K.Yaxin hamda D.M.Mendeleevich tomonidan tuzilgan "Nevrotik holatlarni aniqlash va baholash uchun klinik anketa" metodikasidan foydalanildi. Ikkinchi metodika sifatida esa L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress "Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish metodikasi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi. Eksperiment guruhida nevroz holati yuqori bo'lgan 16 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Diqqat qaratishimiz kerak jihati shundaki, bu guruh faqat qizlar tashkil topdi.

Umumiy hisobda, tadqiqotimizda 103 nafar o'smir ishtirok etdi. Bunda, yuqori daraja 15% o'smirda aniqlandi. 47% o'smirda o'rta darajadagi nevroz holati mavjudligi aniqlandi. Qolgan 38% o'smirlarda nevroz holatining quyi darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga tayanib biz asosiy yuqori darajaga ega bo'lgan 16 nafar o'smirlarni ajaratib oldik.

Metodikalar bo'yicha quyidagi miqdoriy va sifat jihatdan tahliliy natijalar olindi. Miqdoriy tahlil natijalari diagramma, jadval ko'rinishida aks ettirildi.

**O'zsmirlarda nevroz holati darajalari foizlarda**



**1-rasm: K.Yaxin hamda D.M.Mendeleevich tomonidan tuzilgan "Nevrotik holatlarni aniqlash va baholash uchun klinik anketa" metodikasi natijalari (n=103)**

Biz tomonimizdan tanlangan 2 ta metodika ham deyarli bir xil natijani berdi. Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, o'quvchilar haqiqatdan ham metodikani to'g'ri ishlaganlar.

Metodikalar bo'yicha quyidagi miqdoriy va sifat jihatdan tahliliy natijalar olindi. Miqdoriy tahlil natijalari diagramma, jadval ko'rinishida aks ettirildi.

L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress "Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish" metodikasi bo'yicha olingan natijalardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

Tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilardan 20 va undan ortiq ball to'plagan qismida nevroz holati yuqoriligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari yuqori va o'rta nevroz holati 8-sinf o'quvchilarida 7-sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoriligini ko'rindi.

Tadqiqot ishimiz vazifalaridan kelib chiqib, nevroz holati, xususan nevrosteniya darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarni aniqlab oldik. Yuqorida keltirilgan L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress "Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish" metodikasidan olingan natijalarni tahlil qilib, yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan o'smirlar natijalarini alohida taqdim etishni lozim topdik. Metodika shartiga ko'ra agar to'plangan ball 20 va undan yuqori bo'lsa, yuqori nevroz, agar 10 dan 19 gacha bo'lsa, o'rta darajadagi nevroz, agar 1 dan 9 gacha bo'lsa, quyi darajadagi nevroz deb belgilanadi. Biz bu jadvalda faqat nevroz holati yuqori bo'lgan o'smirlar guruhini keltirib o'tdik.



**1-jadval: L.I.Vasserman tomonidan ishlab chiqilgan ekspress “Nevrotizatsiya darajasini diagnostika qilish” metodikasi (n=16)**

| Sinaluvchi | Yuqori nevroz |
|------------|---------------|
| 1          | 28            |
| 2          | 31            |
| 3          | 27            |
| 4          | 30            |
| 5          | 20            |
| 6          | 26            |
| 7          | 24            |
| 8          | 25            |
| 9          | 23            |
| 10         | 22            |
| 11         | 21            |
| 12         | 26            |
| 13         | 27            |
| 14         | 29            |
| 15         | 25            |
| 16         | 21            |

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilardan 16 nafarida metodika natijalariga ko'ra yuqori darajadagi nevroz holati aniqlandi. Ya'ni mazkur sinaluvchilar 20 va undan yuqori balga ega bo'lishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, nevrosteniya yuqori darajada bo'lgan o'smirlarning aksariyati qiz bolalar ekan.

Bizningcha buning sababi ushbu yoshda o'smirlardagi fiziologik, psixologik va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar bilan bir qatorda qizlardagi shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligi, emotsionalligi, ularga oila va umuman jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talabning yuqoriligidan bo'lishi mumkin.

Jins nuqtai nazardan amalga oshirgan statistik tahlil natijalari ham o'g'il bolalar hamda qiz bolalarda nevroz holatining namoyon bo'lishi orasida juda katta ahamiyatlilik darajasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu oilada o'g'il bolalarga nisbatan qizlarga qandaydir ruhiy bosim o'tkazish holatlari mavjudligi, ota-ona va farzand munosabatlarida qizlarga ba'zi bir ijtimoiy mustaqil fikrlash imkoniyatining berilmasligida bo'lishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlarda nevroz holati ko'pincha ma'lum bir psixotravmatik jarayon oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Ular emotsional hamda fiziologik jihatdan azoblanadi. Kuchli psixosomatikadan so'ng odatda tanada kuchli og'riq bo'lishi mumkin.

O'smir shaxsida nevroz muammosi namoyon bo'lishining psixologik-pedagogik asoslariga doir fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin. Nevroz holatining yuzaga kelishi shaxsning hissiy-emotsional sohasi, aqliy taraqqiyoti, ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillar bilan bevosita bog'liqdir. Nevrozning namoyon bo'lishi, asosan, shaxsning ijtimoiy muhit ta'sirlari natijasida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, nevroz holati faqat ijtimoiy omillar bilan emas, balki biologik omillar bilan ham shartlangan xususiyatga ega. Shaxsda nevrozning shakllanishi ularning yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish darajasi bilan bog'liqdir. Ushbu holatlar o'smir shaxsining psixologik rivojlanishida nevroz muammosining o'rni va ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Тарнавский, Ю. Б. Срыва можно избежать (неврозы, их лечение и профилактика) / Ю. Б. Тарнавский. — М.: Медицина, 1990. с 9
2. Forobiy. Fozil odamlar shahri. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. -Toshkent: 1993.
3. Abu Ali Ibn Sino.Tib qonunlari 3-kitob.T.–Sharq 2020.— 736 bet
4. Менделевич В.Д. Клиническая и медицинская психология – М.,2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.